



SOLIQ SALOHİYATI BILAN BOG'LIQ TADQIQOTLARNING ILMIY TAHLILI

Jurayev Xusan

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti

ORCID: 0009-0003-9805-9712

xusan.jurayev@tues.uz

Annotatsiya. Ushbu maqolada soliq salohiyatining iqtisodiy mazmuni, uning shakllanish qonuniyatlari va soliq tizimidagi strategik o'rni yoritilgan. Tadqiqot davomida soliq salohiyatiga ta'sir etuvchi omillar tahlil qilinib, davlat budjeti daromadlarini barqarorlashtirishda ushbu ko'rsatkichning ahamiyati asoslab berilgan. Shuningdek, soliq bazasini kengaytirish va soliq yig'iluvchanligini oshirish orqali mamlakat iqtisodiy o'sishini ta'minlash yo'llari ko'rib chiqilgan. Maqola soliq siyosatini takomillashtirish va soliq yukini optimallashtirish masalalari bilan qiziquvchi mutaxassislar uchun mo'ljallangan.

Kalit so'zlar: soliq salohiyati, soliq tizimi, iqtisodiy mazmun, soliq bazasi, budget daromadlari, soliq siyosati, fiskal samaradorlik, soliq yukini optimallashtirish, soliq tushumlari, optimallashtirish, soliq imtiyozlari, soliq stavkasi.

НАУЧНЫЙ АНАЛИЗ ИССЛЕДОВАНИЙ, СВЯЗАННЫХ С НАЛОГОВЫМ ПОТЕНЦИАЛОМ

Жураев Хусан

Ташкентский государственный
экономический университет

Аннотация. В данной статье рассматривается экономическое содержание налогового потенциала, законы его формирования и его стратегическая роль в налоговой системе. В ходе исследования проанализированы факторы, влияющие на налоговый потенциал, и обоснована важность этого показателя для стабилизации доходов государственного бюджета. Также рассмотрены пути обеспечения экономического роста страны путем расширения налоговой базы и увеличения налоговых поступлений. Статья предназначена для специалистов, заинтересованных в совершенствовании налоговой политики и оптимизации налогового бремени.

Ключевые слова: налоговый потенциал, налоговая система, экономическое содержание, налоговая база, бюджетные доходы, налоговая политика, фискальная эффективность, оптимизация налогового бремени, налоговые поступления, оптимизация, налоговые льготы, налоговая ставка.

Jurayev Khusan*Tashkent State University of Economics*

Abstract. *This article covers the economic content of tax capacity, the laws of its formation and its strategic role in the tax system. During the study, the factors affecting tax capacity were analyzed and the importance of this indicator in stabilizing state budget revenues was substantiated. Also, ways to ensure the country's economic growth by expanding the tax base and increasing tax collection were considered. The article is intended for specialists interested in improving tax policy and optimizing the tax burden.*

Keywords: *tax capacity, tax system, economic content, tax base, budget revenues, tax policy, fiscal efficiency, optimization of the tax burden, tax revenues, optimization, tax incentives, tax rate.*

Kirish.

Soliq salohiyati tushunchasi shunchaki yig'ilgan soliqlar miqdori emas, balki iqtisodiyotning muayyan rivojlanish bosqichida soliq to'lovchilarga ortiqcha og'irlik tushirmagan holda safarbar etilishi mumkin bo'lgan maksimal moliyaviy resurslar ko'lamini ifodalaydi. Bugungi kunda mamlakatimizda amalga oshirilayotgan soliq islohotlari doirasida soliq yukini kamaytirish, soliq ma'murchiligini soddalashtirish va "yashirin iqtisodiyot" ulushini qisqartirish ustuvor vazifa etib belgilangan. Bu jarayonda soliq salohiyatini to'g'ri baholash davlat budjeti parametrlarini aniq rejalashtirish va hududlarning iqtisodiy imkoniyatlaridan samarali foydalanish imkonini beradi. Shu bois, soliq salohiyatining iqtisodiy mazmunini chuqur o'rganish va uning soliq tizimidagi o'rnini belgilash ilmiy va amaliy jihatdan juda dolzarb hisoblanadi.

Adabiyotlar sharhi.

Soliq salohiyati tushunchasi iqtisodiy adabiyotlarda turli xil yondashuvlar asosida tadqiq etilgan. Ushbu tushunchaning mazmunini ochib berishda jahon va mahalliy olimlarning qarashlarini uchta asosiy yo'nalishga ajratish mumkin.

Klassik va neoklassik yondashuvlar Ushbu yondashuv vakillari soliq salohiyatini mamlakatning umumiy iqtisodiy resurslari bilan bog'laydilar. Xususan, Musgreiv va Musgreivlar (1989) o'zlarining "Public Finance in Theory and Practice" asarlarida soliq salohiyatini (tax capacity) iqtisodiyotning soliq bazasini tashkil etuvchi real daromadlari sifatida ta'riflaydi. Ularning fikricha, soliq salohiyati – bu davlatning iqtisodiy o'sishga zarar yetkazmagan holda safarbar etishi mumkin bo'lgan maksimal resurslaridir.

Soliq stavkalari va salohiyat o'rtasidagi bog'liqlikni Laffer (2004) o'zining mashhur "Laffer egri chizig'i" nazariyasi orqali tushuntirib bergan. Uning ta'kidlashicha, soliq yukining haddan ziyod yuqori bo'lishi soliq to'lovchilarning faolligini pasaytiradi va natijada real soliq salohiyatining qisqarishiga olib keladi.

Fiskal va ma'muriy yondashuvlar MDH davlatlari olimlari, jumladan V. Panskov va I. Gorskiy, soliq salohiyatini ko'proq amaldagi soliq qonunchiligi bilan bog'laydilar. Gorskiyning (2003) fikricha, soliq salohiyati – bu muayyan hududda amaldagi soliq stavkalari sharoitida soliq bazasidan undirilishi mumkin bo'lgan soliq daromadlarining prognoz miqdoridir. Bu yondashuvda soliq ma'murchiligi va yig'iluvchanlik ko'rsatkichlariga asosiy e'tibor qaratiladi.

Mahalliy olimlarning tadqiqotlari O'zbekistonlik iqtisodchi olimlar soliq salohiyatini milliy iqtisodiyotning transformatsiyalashuvi nuqtai nazaridan o'rgananganlar:

Jo'rayev (2004) o'zining ilmiy ishlarida soliq salohiyatini hududiy rivojlanish omili sifatida tahlil qiladi. Uning fikricha, soliq salohiyati nafaqat amaldagi tushumlar, balki hali soliqqa tortilmagan, lekin kelajakda daromad keltirishi mumkin bo'lgan manbalarni ham o'z ichiga oladi.

Voxidov (2015) o'zining doktorlik dissertatsiyasida soliq salohiyatini baholashda "yashirin iqtisodiyot" ulushini hisobga olish zarurligini ilmiy asoslab bergan. Uning qarashlariga ko'ra, soliq salohiyatining to'liq yuzaga chiqmasligiga soliqdan qochish va soliq imtiyozlarining samarasizligi sabab bo'ladi.

Sh. Toshmatov soliq salohiyatini oshirishning asosi sifatida tadbirkorlik subyektlarining moliyaviy barqarorligini ko'rsatib o'tgan (Кодекс, 2020).

Adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, soliq salohiyati murakkab va ko'p qirrali tushunchadir. Agar klassiklar unga iqtisodiy imkoniyat sifatida qaragan bo'lsa, zamonaviy tadqiqotchilar uni soliq ma'murchiligi va institutsional muhit bilan uzviy bog'liq deb hisoblamoqda.

Tahlil va natijalar muhokamasi.

Soliq tizimida soliq salohiyati degan tushuncha qo'llaniladi. Tarixiylik jihatdan ilmiy yondoshilganda soliq salohiyati tushunchasi ilmiy adabiyotlarda XX asrning ikkinchi yarmidan boshlab qo'llanilgan. Jumladan, ilmiy izlanishlarda davlat moliyasi va soliq siyosatini baholashga doir izlanishlar kuchaygan davrda shakllangan, asta-sekin moliyaviy sektorda amaliy jarayonga aylanib borishi bilan bir qatorda makro-mikro iqtisodiy fiskal tahlilning muhim kategoriyasi sifatida ilm-fanga kirib kela boshladi.

Albatta boshqa ilmiy tadqiqot mavzulari singari ushbu mavzu ya'ni, soliq salohiyati masalasi ham ilmiy tadqiqotlarning markazida bo'lib kelgan. Ularda soliq salohiyatining ilmiy mazmuni, uni aniqlash uslubiyoti, milliy iqtisodiyot hamda hududlar doirasida aniqlash va baholash metodologiyasi, soliq salohiyati va budjetni rejalashtirish, soliqlarni rejalashtirish, soliqlarni prognoz qilish va shu kabi jarayonlar bilan bog'liq holda o'rganilgan. Ilmiy tadqiqot uslubiyotiga asoslangan holda bu boradagi avval amalga oshirilgan xalqaro va milliy darajadagi ilmiy tadqiqot ishlarini ayrimlarini ilmiy-tahlil qilishga harakat qilamiz.

Jumladan, MDH olimlaridan biri P.Magomedov o'z ilmiy ishlarida mintaqa ya'ni hududning soliq salohiyati konsepsiyasini tadqiq qiladi. Jumladan, ushbu tadqiqotchi soliq salohiyatini hududlar va ayrim olingan soliq to'lovchilar doirasida uning hajmini aniqlashga ilmiy yondashuvlarning evolyusiyasini keng tahlil qilgan holda hududlarning soliq salohiyatining shakllanishi va hajmini belgilovchi omillarga alohida e'tibor qaratadi hamda bu masalaga ustuvorlik berishning ilmiy sabablarini ko'rsatib beradi, shuningdek, fiskal tartibga solish jarayonida hududning soliq salohiyatiga ta'sirini va tendensiyalarini baholaydi, ularni tizimlashtiradi, mintaqaning soliq salohiyatidan foydalanish hajmi va darajasi ko'rsatkichlarini aniqlab beradi.

Ushbu olimning ilmiy hissasi shundaki, u tadqiqot jarayonida soliq ma'muriyatchiligiga tizimli yondashadi, va hududning soliq salohiyatini amalga oshirish uchun metodologiya ishlab chiqadi, uzoq muddatli davlat moliyaviy va soliq siyosatida hududning budjet daromadlarining o'sishini ta'minlaydigan mintaqaviy soliq siyosatining istiqbolli yo'nalishlarini ko'rsatib beradi. Bu borada u soliq salohiyati tushunchasi mazmuniga aham to'xtalib o'tadi va uni butun mamlakat bo'ylab yagona soliqqa tortish shartlari ostida moliyaviy yilda olinishi mumkin bo'lgan jon boshiga budjet daromadlarining potentsiali sifatida ta'riflagan holda birinchidan, ma'lum bir hududda soliq to'lovlarining mumkin bo'lgan maksimal miqdori (fiskal yondashuv), ikkinchidan, mavjud budjetlararo munosabatlar asosida olinishi mumkin bo'lgan jon boshiga budjet daromadlarining imkoniyati (budjetlararo yondashuv) va uchinchidan, soliq to'lovlari orqali budjetda to'planishi kerak bo'lgan resurslar (resurs yondashuvi) sifatida tavsiflaydi.

Rossiyalik olim-Lyatina Yelena Valerievna ham soliq salohiyati bo'yicha katta ilmiy tadqiqotlarni amalga oshirgan. Uning bu boradagi ilmiy tadqiqotlarini tahlil qiladigan bo'lsak, u "soliq salohiyatining moliyaviy va ijtimoiy mohiyatini ochib beradi, va uning asl ta'rifini ishlab chiqishga harakat qilgan, Rossiya davlati moliyaviy-soliq qonunchiligida soliq salohiyatining iqtisodiy mohiyatini tushunish va ma'nosidagi asosiy kamchiliklarni aniqlab bergan, shu bilan birgalikda ushbu kamchiliklarni bartaraf etishga qaratilgan aniq takliflar va tavsiyalarni ilmiy

asoslab beradi, hudud va federal darajalarda soliq salohiyatining shakllanishi va rivojlanishiga ta'sir qiluvchi asosiy ichki va tashqi omillar va ularning ta'sirini asoslab beradi, Rossiya Federatsiyasi va xorijiy mamlakatlar milliy iqtisodiyotining rivojlanishini qiyosiy tahlil qilish asosida davlat organlari faoliyatini rejalashtirish jarayonida soliq salohiyatini baholash xususiyatlarini har tomonlama taqdim etish, soliq salohiyatini shakllantirish mexanizmlarini ko'rsatib beradi, shuningdek, milliy iqtisodiyot tuzilmasini, budjet jarayonini va ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishni tahlil qilgan holda soliqlarni rejalashtirish doirasida soliq salohiyatidan foydalanish bo'yicha takliflar va tavsiyalarni shakllantiradi" (Лятина, 2008).

Bundan tashqari ushbu olim soliq salohiyati tushunchasini aniqlashtirib bergan, ya'ni "soliq salohiyatini mamlakat yoki mintaqa iqtisodiyotining holatini sifat jihatidan tavsiflovchi hisoblangan qiymat sifatida va iqtisodiy kompleksda mavjud va o'zaro ta'sir qiluvchi manbalar va ob'ektlarga haqiqiy soliqqa tortish sharoitida ma'lum bir fiskal siyosatni qo'llash natijasida o'zgarishlar sifatida xarakterlagan holda uning to'rtta tarkibiy segmenti asosida tuzish zarurati va maqsadga muvofiqligini asoslaydi (mulk kompleksi (er va mulk solig'i manbai sifatida), pul oqimiga asoslangan qo'shilgan qiymat (qo'shilgan qiymat solig'i va daromad solig'i manbai sifatida), tartibga solinadigan tadbirkorlik faoliyati (qimor o'yinlari solig'i, foydali qazilmalarni qazib olish solig'i manbai sifatida) va soliq bo'lmagan to'lovlar va yig'implardan olinadigan boshqa daromad manbalari va shu kabilar), o'z navbatida ushbu tadqiqotchi soliq salohiyatini baholashning mavjud usullarini tizimlashtirish va tasniflash asosida tarkibiy ko'p bosqichli modelini ishlab chiqqan, ushbu model doirasida milliy soliq salohiyati bilan uning asosi o'rtasidagi bog'liqlik soliqqa tortiladigan ob'ektlarning ma'lum manbalariga nisbatan qo'llaniladigan soliqni tartibga solish va fiskal siyosat orqali amalga oshirilishini hamda nafaqat fiskal, balki soliqlarning tartibga solish funksiyalari ham hisobga olinishini lozimligini ko'rsatib beradi" (Лятина, 2008).

Yana bir tadqiqotchi E.Voskanyan esa, "subfederal soliq salohiyati" ni aniqlashga oid ilmiy tadqiqotlar olib borib, soliq salohiyatining tarkibiy qismlarini omil tahlil qilish metodologiyasini taklif qiladi, mintaqaviy soliq daromadlarini oshirish, soliq salohiyatini rivojlantirishda ijobiy dinamikani ta'minlash bo'yicha metodologik tavsiyalarni ishlab chiqadi, vaziyatga asoslangan yondashuv asosida mintaqaviy soliq salohiyatini baholash metodologiyasini ilmiy asoslab beradi, hududning mavjud resurslaridan foydalanish va barqaror ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishning optimal kombinatsiyasini aks ettiruvchi subfederal soliq salohiyatini aniqlashni taklif qiladi, mintaqaning soliq salohiyatini boshqarish metodologiyasini ishlab chiqadi, soliq salohiyati va budjet jarayonining bog'liqligini takomillashtirish maqsadida, mintaqaviy soliq salohiyatini oshirish orqali soliq tushumlarini oshirish bo'yicha metodologik tavsiyalar beradiki bu taklifi bu mintaqada umumiy iqtisodiy faollikni oshirish va soliq siyosatini boshqarishni tashkil etishni takomillashtirishga xizmat qiladi.

Shuningdek, Voskanyan (2014) mintaqaviy va shahar darajasidagi soliq salohiyati ko'rsatkichlarining manbalari aniqlab, ularni hisobga olish metodologiyasini asoslab beradi, uning fikricha, ushbu metodologiyani joriy etish hududiy budjetlarni o'z manbalaridan soliq komponenti va daromad bazasini ko'paytirish orqali moliyalashtirishda yordamga ehtiyojni kamaytirishga yordam beradi deb hisoblaydi, o'z navbatida soliq salohiyatini omil tahlil qilish metodologiyasi taklif qiladi, uning natijalari soliq salohiyatini shakllantiruvchi ko'rsatkichlarning o'zaro ta'sirini hisobga olgan holda uni ob'ektiv baholashga yordam berishligini ta'kidlaydi".

Korsun Andrey Yurevich (2010) ham soliq salohiyati bilan bog'liq katta ilmiy tadqiqotlar olib borgan. U o'z ilmiy tadqiqotlarida soliq salohiyatining ijtimoiy-iqtisodiy mazmunini konseptual jihatdan tushuntirib bergan, uni "iqtisodiy rivojlanishning reproduktiv qonunlari nuqtai nazaridan tizimlashtirish asosida ilmiy izohlagan, milliy iqtisodiy rivojlanishining bir qator shartlari va parametrlarini hisobga olgan holda, mamlakat budjet tizimiga soliq tushumlarini oshirish istiqbollari asoslashga harakat qilgan. Bulardan tashqari, mintaqaviy

iqtisodiyotning rasmiy sektorida foydalanilmagan soliq salohiyati zaxiralari hajmini va uning soliq yukining muhim qiymatlarini aniqlab beradi, muvozanat iqtisodiyoti modelidan foydalangan holda ishlab chiqarish va iste'mol omillariga soliq yukini tahlil qilgan, soliq salohiyatining noqonuniy tarkibiy qismini minimallashtirish va uni iqtisodiyotning rasmiy sektoriga evolyusion ravishda o'zgartirish strategiyalari tizimini ishlab chiqqan, xo'jalik yurituvchi sub'ektlarning potensial imkoniyatlarini budjet tizimining soliq yig'imlariga bo'lgan hozirgi ehtiyojlari bilan uyg'unlashtirish mexanizmini taklif qilgan".

Bundan tashqari, "hududning iqtisodiy rivojlanishining bir qator shartlari va parametrlarini hisobga olgan holda va mintaqaviy soliq resurslarini boshqarish tizimining samarali ishlashini tashkil etish imkonini beruvchi soliq tushumlarini prognoz qilish uchun zanjirli matritsa modelidan foydalanish taklif qilgan, barcha darajadagi budjetlarga soliq tushumlarini yanada oshirish uchun zaxiralar aniqlandi va davlat va xo'jalik yurituvchi sub'ektlarning soliqqa tortish sohasidagi iqtisodiy manfaatlarini muvofiqlashtirish shartlari aniqlab bergan, mehnat, kapital va iste'molga yashirin soliq stavkalarini optimallashtirish orqali milliy iqtisodiyotning soliq salohiyatini oshirish istiqbollari asoslab berganki, uning fikricha, bu mamlakat iqtisodiy kompleksining soyal segmenti hajmini kamaytirish bo'yicha takliflar berish imkonini beradi, shuningdek, mintaqaviy iqtisodiy kompleksning soliq salohiyatini oshirishning funksional va maqsadli ustuvorliklari tizimini ko'rsatib beradi, uni amalga oshirish iqtisodiyotning rasmiy sektorining takror ishlab chiqarish salohiyatini safarbar qilishni va uning soyal tarkibiy qismini kamaytirishni ta'minlashga xizmat qiladigan takliflarni keltirib o'tgan" (Kopcyh, 2010).

Yuqoridagilar tashqari MDH olimlaridan Kalinina (2006) ham soliq salohiyati bo'yicha muhim ilmiy tadqiqotlar olib borgan. Ushbu olimaning ilmiy tadqiqotlarini tahlil qiladigan bo'lsak, u "hududning resurs parametrlariga asoslanib, mintaqaning soliq salohiyati konsepsiyasining mohiyatini aniqlab bergan, hududning mintaqaning soliq salohiyatini shakllantirishga ta'sir qiluvchi omillarni tasniflab bergan, soliq salohiyatining kattaligini belgilovchi parametrlarni tasniflashni taklif qilgan, hududning intaqaviy moliyaviy munosabatlar tizimida soliq salohiyatining o'rni va funksional chegaralarini aniqlab bergan, soliq salohiyatini baholashning asosiy usullarini tizimlashtirgan holda keltirgan, hududlarning o'ziga xos sharoitlariga qarab uning haqiqiy qiymatini aniqlash imkonini beruvchi soliq salohiyatini baholashning kompleks metodologiyasini ishlab chiqqan, soliq salohiyatini baholashning turli usullari tizimlashtirgan, shuningdek, mintaqaning soliq salohiyatini baholashning keng qamrovli metodologiyasi taklif qilganki, bu uslubiy jihatdan bu uning haqiqiy qiymatini mintaqalarning o'ziga xos sharoitlariga qarab aniqlash imkonini beradi".

Soliq salohiyatiga oid ilmiy tadqiqotlar olib borgan olimlardan yana biri Karataev (2011) tomonidan amalga oshirilgan ilmiy tadqiqotlar ham alohida ahamiyatga egadir, jumladan, ushbu olim "soliq salohiyatining mazmunini davlat budjeti va soliq siyosatini samarali amalga oshirish omili sifatida tavsiflaydi, tadqiqot ob'ekti sifatida oligan eng yirik soliq to'lovchilarning soliq salohiyatining davlat soliq salohiyatini shakllantirishga ta'sirini asoslab beradi va shu orqali soliq organlari tomonidan eng yirik soliq to'lovchilar bilan munosabatlarda qo'llaniladigan soliq ma'muriyatchiligining funksiyalari, usullari va vositalarini tahlil qilgan holda bu toifadagi rik soliq to'lovchining soliq salohiyati konsepsiyasini ishlab chiqish va uning elementlarining tuzilishi va mantiqiy bog'liqligini asoslab bergan".

Bundan tashqari, A.Karataev tadqiqotlari doirasida milliy iqtisodiyotda muhim rol o'ynovchi "eng yirik soliq to'lovchining soliq salohiyatiga soliq xavflarining ta'sirini asoslaydi, soliq tizimining soliq ma'muriyatchiligida soliq salohiyatini tahlil qilish vositalaridan foydalanish sohalarini nazariy jihatdan asoslash va aniqlaydi, eng yirik soliq to'lovchining soliq salohiyatini strategik tahlil qilish metodologiyasini ishlab chiqadi, undan mintaq va davlatning soliq salohiyatini rejalashtirish uchun foydalanishning maqsadga muvofiqligini ilmiy asoslab beradi, shuningdek, tarmoq xususiyatlariga va eng yirik soliq to'lovchilarning moliyaviy-iqtisodiy faoliyatining o'ziga xos xususiyatlariga qarab soliq yuki ko'rsatkichlari

tizimini aniqlashning metodologik yondashuvlarini ishlab chiqadi hamda eng yirik soliq to'lovchining soliq salohiyatini baholashga yondashuvlar tizimlashtirilgan holda ushbu soliq to'lovchilarning soliq salohiyatini baholash vositalari takomillashtirilgan" (Kaparaev, 2011).

Professor Mironovning (2012) ilmiy tadqiqotlarida soliq salohiyatini aniqlash metodologiyasiga ham alohida e'tibor berganligini ko'rish mumkin. Dastlab, A.Mironov mintaqaviy soliq salohiyati tushunchasining mohiyatini ochib bergan holda uni aniqlashning zarurligini ilmiy jihatdan asoslab berganki, bu budjet va soliq siyosati bilan bog'liqligini aks ettiradi va uni keng va tor ma'noda ta'riflashga imkon bergan, keyingi bosqichda esa, milliy iqtisodiy rivojlanishning mintaqaviy xususiyatlarini tavsiflovchi va mintaqaning soliq salohiyatiga ta'sir qiluvchi omillarni tasniflab bergan, mintaqaning soliq salohiyatini baholash imkonini beruvchi ma'lumotlar tarkibini aniqlash va undan mintaqaviy va munitsipal darajalarda axborot monitoringi uchun foydalanishni tanlashning uslubiy jihatlarini ko'rsatib bergan, mintqa va uning tarkibiy munitsipalitetlarining soliq salohiyatini baholashning kompleks metodologiyasini ishlab chiqqan.

Bulardan tashqari Mironov (2012) davlatning soliq siyosati va soliq ma'muriyatchiligi usullarining doimiy ravishda rivojlanishi sharoitida mintqa va uning hududlarining barqaror rivojlanishi uchun yetarli miqdorda soliq tushumlarini ta'minlashning yo'nalishlarini soliq salohiyati bilan bog'liq holda tushuntirib uni ilmiy asoslaydi, shuningdek, mintaqaning soliq salohiyati mintaqaviy resurslardan foydalanishning hozirgi sharoitlari va amaldagi qonunchilik sharoitida barcha darajadagi budjetlarga soliq tushumlarining mumkin bo'lgan maksimal hajmi sifatida qarash lozimligini ilmiy asoslaydi".

Korteva (2015) degan olim ham soliq salohiyatini aniqlash, uning soliq va moliya tizimidagi ahamiyatini ilmiy asoslab berishga harakat qilad. Jumladan, "xo'jalik yurituvchi sub'ektning soliq salohiyatini baholashning o'ziga xos xususiyatlari va turli jihatlarini aniqlashga alohida e'tibor beradi, xo'jalik yurituvchi sub'ektning soliq salohiyatini shakllantirish va amalga oshirish jarayonining tuzilishini va unga bog'liq xavflarni aniqlab beradi, xo'jalik yurituvchi sub'ektning soliq salohiyatini amalga oshirish jarayonini tartibga solishning mumkin bo'lgan yo'nalishlari va mexanizmlarini hamda mavjud iqtisodiy tahlil usullari doirasida xo'jalik yurituvchi sub'ektning soliq salohiyatini baholash metodologiyasini ishlab chiqadi.

Shuningdek, ushbu tadqiqotchi xo'jalik yurituvchi sub'ektning soliq salohiyatini shakllantirish va amalga oshirish bosqichlari va bosqichlari iqtisodiy faoliyatning soliq komponentini (elementlarga ko'ra) yaratish jarayoni sifatida belgilaydiki, bu iqtisodiy hodisani davlatning soliq holati va biznes sharoitlaridan kelib chiqib, soliq qonunchiligi bilan belgilangan miqdorda budjet tizimiga ma'lum vaqt davomida to'lanadigan soliq to'lovlari shaklida daromad olish majburiyati sifatida belgilashga olib keladi deb hisoblaydi. Bundan tashqari, iqtisodiy sub'ektning soliq salohiyatini baholash uchun maqsadli ko'rsatmalarni belgilash (kelajak uchun hisoblangan soliq tushumlari ko'rsatkichini yoki amalga oshirilgan soliq salohiyatini aniqla; soliq tushumlarining qonuniy ko'rsatkichini yoki haqiqiy soliq salohiyatini aniqlash, haqiqiy soliq to'lovlarining statistik ko'rsatkichini, ya'ni amalga oshirilgan soliq salohiyatini aniqlash) va uning tahlili va prognozlashning o'ziga xos xususiyatlarini belgilovchi xarakterli xususiyatlarini (o'zgaruvchanlik, o'zgaruvchanlik va o'zgaruvchanlik) ilmiy jihatdan asoslaydi".

Rossiyalik olimlardan yana biri Tolstaya (2010) ham soliq salohiyati bilan bog'liq ilmiy tadqiqotlar olib borgan. Ushbu olim, "mintaqaviy soliq salohiyatining konseptual asoslarini aniqlashtirgan holda mintaqaning soliq salohiyatini shakllantirish va rivojlantirishga ta'sir qiluvchi omillar ro'yxatini aniqlashtirgan, shuningdek, mamlakatdagi bir nechta donor va qabul qiluvchi mintaqalarning soliq tarkibiy qismini tahlil qilish asosida Rossiya Federatsiyasi sub'ektlarining soliq salohiyatini ularning o'ziga xos xususiyatlarini hisobga olgan holda rivojlantirishning xususiyatlari va muammolarini aniqla bergan hamda ularga asoslangan holda Rossiya Federatsiyasi sub'ektlarining soliq salohiyatini tasniflash mezonlarini ishlab chiqish metodologiyasini, mintaqaning soliq salohiyatini baholash va prognoz qilish uchun

axborot bazasini takomillashtirish yo'llarini, mintaqaviy tashkilotlarning daromadlilikini oshirish salohiyatini hisobga olishning zarurligidan kelib chiqqan holda bir qator metodologik takliflarni ilmiy asoslagan. Tolstayaning (2010) ilmiy tadqiqotlarida bir qator qoidalarining mavjudligini ko'rish mumkin.

Chunonchi, mintaqaviy soliq salohiyatining quyidagi turlari taklif qilingan va asoslangan: haqiqiy, shartsiz va retrospektiv, va ularning ta'riflarini keltirgan, soliq salohiyatini haqiqiy va shartsizga bo'lish, bu ko'rsatkichni baholashda mintaqaning o'ziga xos xususiyatlarini hisobga olish har doim ham mumkin emasligi bilan bog'liqligi ilmiy asoslagan holda haqiqiy soliq salohiyati inflyatsiya darajasi, amaldagi mintaqaviy soliq siyosati va boshqa mintaqaviy xususiyatlarni hisobga olgan holda aniqlanadigan soliq salohiyati, shartsiz soliq salohiyati esa mintaqaning o'ziga xos xususiyatlarini hisobga olmasdan aniqlanadigan soliq salohiyati sifatida belgilanishligini tavsiflaydi".

Yana bir olim Ibragimova Irina Ibragimovna (2003) ham soliq salohiyatining iqtisodiy mazmuni, uning aniqlashning moliya-soliq tizimidagi ahamiyatini ilmiy asoslagan holda uni aniqlash va budjet-soliq siyosatida e'tibor olishning ahamiyati bilan bog'liq tadqiqotlar olib borgan. U o'z tadqiqotlarida Rossiyaning Dog'iston Respublikasi misolida tahlillarni amalga oshirgan holda iqtisodiy tarmoqlarida soliq daromadlarini shakllantirishning tarkibiy xususiyatlarini aniqlashga, mintaqalarning soliq salohiyatini baholashning nazariy va metodologik yondashuvlarini tanqidiy tahlil qilishgan, soliq qarzlarning iqtisodiy mohiyati va sabablarini hamda ularning budjet tizimining prognoz qilingan daromadlari tuzilishiga ta'sirini tahlil qilishga va uni soliq salohiyati bilan bog'lashga, mintaqaviy soliq salohiyati indeksini hisoblashning takomillashtirilgan metodologiyasi bilan birgalikda soliq daromadlarini rejalashtirish va prognozlash usullarini takomillashtirish istiqbollari aniqlashga, mintaqaning soliq salohiyatini baholashning amaldagi metodologiyasini takomillashtirishga harakat qilgan holda bir qator ilmiy-amaliy ahamiyatga ega bo'lgan metodologik ishlanmalarni taklif qiladi".

MDH davlatlari olimlarining soliq salohiyatiga oid ilmiy tadqiqotlarini tahlilni davom ettiradigan bo'lsak, Popenkov (2006) tomonidan tadqiqotlarni ham tahlil qilish o'z mazmuniga egadir. Ushbu tadqiqotchi, ilmiy tadqiqotlarida: soliq salohiyati kategoriyasini ilmiy tadqiq qilishning zarurligini ilmiy asoslab bergan holda, milliy iqtisodiyot doirasida soliq salohiyati darajasini belgilovchi omillarni aniqlab bergan, uni ya'ni soliq salohiyatini kengaytirish va tizimlashtirish hamda ularning tegishli hududning iqtisodiy rivojlanishiga ta'sirlarni baholagan, milliy iqtisodiyotning soliq salohiyatini baholashning zamonaviy usullarini o'rganish asosida mintaqaviy rivojlanishning makroiqtisodiy ko'rsatkichlarini baholashgan, soliqlarni prognoz qilish uchun tegishli modellarni ishlab chiqishga harakat qilgan, makroiqtisodiy ko'rsatkichlar asosida kompleks baholash uchun metodologik usullarni ishlab chiqish va uni qisqa muddatli soliqlarni prognozlash uchun iqtisodiy va matematik vositalarni taklif qilgan.

Bundan tashqari, ushbu olim tadqiqotlarida soliq salohiyatiga ichki va tashqi iqtisodiy, moliyaviy, tashkiliy va boshqaruv omillari va parametrlarining o'ziga xos ta'sirini aniqlab, ularni ilmiy jihatdan asoslab, hududning besh yillik (2005–2010) soliq salohiyatini baholagan hamda ularni sinab ko'rish maqsadida prognoz qilishning ilmiy asoslarini ko'rsatib bergan, – mintaqaning (federal tarkibiy tuzilma) "soliq salohiyati" toifasining ta'rifiga ham taktik, ham strategik jihatdan muhim qo'shimchalar kiritgan holda taktik ma'noda, soliq salohiyati – bu mintaqaning resurs bazasining ijtimoiy ishlab chiqarishda amalda ishtirok etadigan barcha soliq manbalaridan foydalanishning mavjud shartlarini hisobga olgan holda, amaldagi qonunchilikka muvofiq hisoblangan soliqlar va to'lovlar ko'rinishida real budjet daromadlarini yaratish qobiliyati ekanligini ilmiy asoslab bergan" (Попенков, 2006).

Dotsent Islyamutdinov Sayd Ismagilovich (2007) esa, boshqalardan farqli ravishda "hududiy soliq tizimining asosiy holatiga mos keladigan soliq to'lovlarining maksimal (maqsadli) hajmini safarbar qilish qobiliyatining o'lchovi sifatida hududning soliq

salohiyatining mohiyatini tushunishga kompleks yondashadi, shu jihatdan, hududiy sub'ektning takror ishlab chiqarish tizimi doirasida soliq salohiyatini aniqlashga yaxlit yondashuvni asoslashga harakat qiladi, undan kelib chiqqan holda, hududiy sub'ektlarning soliq salohiyatini baholash va tahlil qilish uchun metodologik asosni ishlab chiqadi, (Samara viloyati misolida) subfederal va submintaqaviy darajalarda soliq tushumlarining asosiy xususiyatlari va hajmlarini aniqlash imkonini beruvchi soliq tushumlarining 5 modeli omil tahlil qilgan, soliq salohiyatini shakllantirish va ulardan foydalanishni boshqarish samaradorligini hamda hududning soliq raqobatbardoshligini oshirish uchun vositalar tizimini taklif qiladi".

Agar, mahalliy olimlarimizning soliq salohiyati bo'yicha amalga oshirgan tadqiqotlarini tahlil qiladigan bo'lsak, bu borada professorlar: S.Xudoyqulov, Sh.Turaev, X.Qobulov, I.Niyazmetov, N.Kuzieva, A.Musagaliev, A.Shernaev, Z.Axrоров, A.Islomqulov, N.Ashurova, O.Meyliev, B.Ibragimov, S.Elmirzaev, Z.Abdullaevlar, Sh.Boboevlar, dotsentlar: P.Tureev, L.Buronova, U.Yuldosheva B.Muqimov, tadqiqotchilar: L.Bozorova, M.Ismoilov, S.Hakimov va shu kabilar olim-tadqiqotchilarning ilmiy ishlarida o'z aksini topgan. Tadqiqot metodologiyasiga asoslangan holda ularning ayrimlarini ilmiy tahlil qilishga harakat qilamiz.

Soliqlarni prognoz qilish va soliq salohiyati bo'yicha ilmiy tadqiqotlar olib borgan prof. Xudoyqulov (2019) o'zining ilmiy tadqiqotlarida "soliq salohiyati kategoriyasining mohiyatini ochib bergan, uning darajasiga ta'sir etuvchi omillarni guruhlagan, milliy, hudud va soliq to'lovchilar doirasida soliq salohiyatini aniqlashning yangicha variantdagi metodologiyasini ishlab chiqqan, budjet-soliq tizimida soliq salohiyatidan foydalanishning ilmiy yo'nalishlarini ko'rsatib bergan, turli darajada (makro darajada, hududlar va alohida olingan soliq to'lovchi-korxonalar doirasida) soliq salohiyatini aniqlash (baholash)ning metodologiyasini ishlab chiqqan, shuningdek, soliq to'lovchilarda soliq to'lovlarini rejalashtirish bilan bog'liq mexanizmlarni, budjetni rejalashtirish va soliqlarni prognoz qilishning o'zaro bog'liqligini ta'minlashning ustuvor yo'nalishlarini ko'rsatib bergan hamda soliq tushumlarini prognoz qilish va soliq salohiyatini baholashning xorij tajribasini tahlil qilgan va ularni qiyosiy tahlil qilish asosida ilmiy xulosalar chiqargan".

Professor Sh.To'raev esa, "Hududlar bo'yicha soliq yuki dinamikasi va tahlili" mavzusidagi maqolasida soliq salohiyatini ilmiy-analitik nuqtai nazardan tizimli tahlil qilgan. Jumladan, Soliq yuki va soliq salohiyati o'rtasidagi bog'liqlikni tahlil qilgan holda yuqori soliq yuki doim ham yuqori soliq salohiyatini anglatmasligini, soliq yukining optimal darajasi hudud iqtisodiy rivojlanish bosqichiga bog'liqligini o'z navbatida soliq yuki ortishi investitsion faollikni pasaytirishligini ta'kidlagan bo'lsa, "sifat va miqdoriy tahlil usullaridan kelib chiqqan holda, hududlarning soliq salohiyatini birinchi navbatda sifat jihatidan aniqlash zarurligini ta'kidlab, sifat jihatidan olib qaraganda hududlarning soliq salohiyati tizimli tuzilishdan iborat bo'lib, hududlarning soliq salohiyati bu soliq solishning huquqiy negizi va iqtisodiy tizimi tashkil etilgan sharoitda qandaydir bir soliq munosabatlari sub'ektlarning soliq to'lovlari oqimini shakllantira olish qobiliyati bo'lsa, tor ma'noda olib qaraganda hududlarning soliq salohiyati soliq solish tizimi orqali va amaldagi qonunchilikka muvofiq ravishda budjetga tushishi kerak bo'lgan moliyaviy resurslardan iborat bo'ladi"¹ deb ta'kidlaydi.

Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori Tureev (2021) ham dissertatsion tadqiqotlarida Qoraqalpog'iston Respublikasi misolida hududlarning soliq salohiyatini baholash masalalariga keng urg'u bergan holda, hududiy soliq salohiyatini oshirish masalasini kompleks yondoshuv asosida tadqiq etgan, ushbu ilmiy ishning amaliy ahamiyati Qoraqalpog'iston Respublikasining ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishini moliyaviy jihatdan ta'minlashda muhim manba bo'lib xizmat qilgan. Uning ilmiy tadqiqotlarida "soliq salohiyatini hududiy iqtisodiy salohiyat bilan bog'liq holda kompleks baholash taklif etilgan,

¹ Тўраев Шавкат Шухратович. Худудлар бўйича солиқ юки динамикаси ва таҳлили. Мақола. ://C:/Users/user/Desktop/%D0%A1%D0%9E%D0%9B%D0%98%D2%9A%D0%A1%D0%90%D0%94%D0%9B%D2%B2%D0%98%D0%AF%D0%A2%D0%98/3%20-%20Copy.pdf.

Qoraqalpog'iston sharoitida soliq salohiyatini oshirishning ustuvor yo'nalishlari tizimlashtirilgan, soliq bazasini kengaytirishda tarmoqlar kesimida (sanoat, qishloq xo'jaligi, xizmatlar sohasi) aniq mexanizmlar taklif qilingan, soliq ma'murchiligini raqamlashtirish orqali soliq salohiyatini oshirish modeli asoslab berilgan.

Shuningdek, soliq salohiyatini oshirishning asosiy yo'nalishlari sifatida iqtisodiy bazani mustahkamlash, ya'ni, yangi ishlab chiqarish quvvatlarini yaratishni, kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirishni, investitsiya muhitini yaxshilashni zarurligini ilmiy asoslagan bo'lsa, soliq bazasini kengaytirish- soliq to'lovchilar sonini oshirish, iqtisodiyotning norasmiy sektorini qisqartirish, yer va mol-mulk soliqlaridan foydalanish samaradorligini oshirishga alohida e'tibor qaratilishi lozimligini ta'kidlagan.

Bundan tashqari, ushbu olim soliq ma'murchiligini takomillashtirish orqali, ya'ni, soliq nazoratini risklarga asoslangan usullar orqali tashkil etish, raqamli soliq xizmatlarini keng joriy etish, soliq intizomini oshirish soliq salohiyatini oshirish mumkinligini ilmiy jihatdan ko'rsatib bergan. O'z navbatida soliq imtiyozlarini maqsadli qo'llash natijasida samarasiz imtiyozlarni qisqartirish va iqtisodiy o'sishga xizmat qiluvchi imtiyozlarni saqlab qolish lozimligini ham ko'rsatib o'tadi. Ushbu ilmiy ishning ahamiyati shundaki, Qoraqalpog'iston Respublikasi moliya va soliq organlari faoliyatida, hududiy budjet prognozlarini tuzishda, soliq siyosati samaradorligini oshirishda amaliy jihatdan o'z mohiyatiga ega bo'lib, muallif soliq salohiyat tushunchasining nazariy-uslubiy asoslarini ochib bergan, hududiy soliq salohiyatini baholash uslublarini tahlil qilgan, Qoraqalpog'iston Respublikasi soliq tushumlarining dinamikasi va tarkibini tahlil qilgan, hududda soliq bazasini kengaytirish imkoniyatlarini aniqlagan, yashirin iqtisodiyot va soliq yo'qotishlarining soliq salohiyatiga ta'sirini baholagan hamda soliq ma'murchiligini takomillashtirish bo'yicha takliflar bergan" (Typeev, 2021).

Iqtisodiyot fanlari doktori Shernaev (2025) ham o'z ilmiy tadqiqotlarida soliqlarni rejalashtirish muammosini soliq salohiyati bilan bog'liq holda tadqiq etgan. Jumladan, "soliq rejalashtirish tushunchasi va uning AJ moliyaviy boshqaruvidagi o'rnini ochib bergan va uni soliq salohiyati bilan bog'liq holda ochib bergan, xorijiy mamlakatlarda aksiyadorlik jamiyatlarida soliq soliq salohiyati va rejalashtirish amaliyotini tahlil qilgan, soliq rejalashtirish va soliq optimallashtirish o'rtasidagi bog'liqlikni soliq salohiyati jihatidan o'zaro farqlarni ilmiy asoslagan".

Iqtisod fanlari doktori Z.Axrorov ham ilmiy ishlarida soliq salohiyati davlat moliyasi barqarorligini ta'minlovchi asosiy manbalardan biri ekani ta'kidlagan holda soliq munosabatlari tizimida soliq salohiyatini oshirish natijasida budjet daromadlarini barqarorlashtirish, hududlar moliyaviy mustaqilligini kuchaytirish, iqtisodiy o'sishni rag'batlantirishda uchun hal qiluvchi ahamiyatga ega ekanini ilmiy jihatdan asoslaydi. Ayniqsa, iqtisodiyotda tarkibiy o'zgarishlar va soliq islohotlari jarayonida mazkur masalaning dolzarbligi oshib boradi deb hisoblaydi. Nazariy jihatdan qaraganda Z.Axrorov soliq munosabatlari tizimida soliq salohiyati tushunchasini nazariy jihatdan ochib bergan holda uni oshirishning iqtisodiy hamda institutsional ahamiyatini ko'rsatib berishga harakat qilgan. U o'z ilmiy tadqiqotlarida quyidagi yo'nalishlarga e'tibor qaratgan: jumladan, soliq salohiyatini oshirish natijasida budjet daromadlarini barqarorlashtirish, hududlar molining iqtisodiy mazmuniga, soliq munosabatlari tizimida uning o'rniga, soliq salohiyatini oshirish natijasida budjet daromadlarini barqarorlashtirish, hududlar moliya va budjet daromadlari o'rtasidagi bog'liqlikka, soliq siyosatining soliq salohiyatiga ta'siriga va shu kabilarga alohida e'tibor qaratadi. Shuningdek, soliq salohiyatini iqtisodiy salohiyat, moliyaviy resurslar va soliq bazasi bilan bog'liqligini ilmiy asoslashga harakat qilgan, ularni soliq salohiyati bilan uzviy bog'liq kategoriya sifatida talqin qiladi.

Xulosa va takliflar.

O'zbekiston Respublikasi soliq tizimida soliq salohiyatidan samarali foydalanish va uni kengaytirish maqsadida quyidagi choralar taklif etiladi:

1. Soliq ma'murchiligini "Koreya modeli" asosida raqamlashtirish. Iste'molchilarni soliq nazoratiga jalb qilish uchun Janubiy Koreyadagi kabi naqd pul cheklari (Cash Receipt) uchun keshbek miqdorini tabaqalashtirish va tizimni yanada soddalashtirish. Bu "yashirin" aylanmalarni avtomatik ravishda soliq bazasiga qo'shadi.

2. Fiskal desentralizatsiyani kuchaytirish (Xitoy va Qozog'iston tajribasi). Hududiy hokimiyatlarning o'z soliq salohiyatini oshirishdan manfaatdorligini oshirish. Buning uchun tadbirkorlik faoliyatidan tushadigan korporativ soliqlarning ma'lum bir qismini (masalan, 30-50%) to'g'ridan-to'g'ri mahalliy budjetda qoldirish mexanizmini kengaytirish.

3. Soliq madaniyatini yoshlikdan shakllantirish. Janubiy Koreya tajribasini qo'llab, umumta'lim maktablari o'quv dasturlariga "Soliq savodxonligi" darslarini kiritish. Soliq to'lash — bu davlat xizmatlarini (ta'lim, tibbiyot, xavfsizlik) sotib olish ekanligini aholi ongiga singdirish.

Adabiyotlar/Literatura/Reference:

Gorskiy I.V. (2003) *Nalogoviy potentsial v mexanizme mejbudjetnix otnosheniy // Voprosi ekonomiki.* – № 6.

Jo'rayev A.S. (2004) *Soliqlar va soliqqa tortish. Darslik.* –T.: Sharq.

Laffer A.B. (2004) *The Laffer Curve: Past, Present, and Future.* – Heritage Foundation.

Musgrave R.A., Musgrave P.B. (1989) *Public Finance in Theory and Practice.* – New York: McGraw-Hill.

Voxidov O.V. (2015) *Soliq salohiyatini shakllantirish va undan foydalanish samaradorligini oshirish. Iqt. fan. dok. diss.* – T.: BMA.

Восканян Эмма Сергеевна. (2014) *Формирование и развитие субфедерального налогового потенциала. 08.00.10 - Финансы, денежное обращение и кредит. Автореферат диссертации на соискание ученой степени кандидата экономических наук. Орел, с. 24.*

Ибрагимова Ирина Ибрагимовна. (2003) *Налоговый потенциал региона и резервы его использования. Специальность: 08.00.10 - Финансы, денежное обращение и кредит. Автореферат диссертации на соискание ученой степени кандидата экономических наук. Махачкала, с.24.*

Ислямутдинов Сайд Исмагилович. (2007) *Налоговый потенциал территории: методологические аспекты формирования и совершенствования управления. Специальность 08 00 05 - Экономика и управление народным хозяйством региональная экономика. Автореферат диссертации на соискание ученой, степени кандидата экономических наук. Самара, с.26.*

Калинина Ольга Владимировна. (2006) *Комплексная методика оценки налогового потенциала региона. Специальность 08.00.10 — Финансы, денежное обращение и кредит. Автореферат диссертации на соискание ученой степени кандидата экономических наук. Иваново –с. 26.*

Каратаев Алексей Сергеевич. (2011) *Концепция налогового потенциала крупнейших налогоплательщиков и методология его оценки. Специальности: 08.00.10 - Финансы, денежное обращение и кредит. Автореферат диссертации на соискание ученой степени доктора экономических наук. Йошкар-Ола, с.38.*

Кодекс (2020) *Ўзбекистон Республикаси Солиқ кодекси-Тошкент: Фафур Фулом нашриёт уйи.* - 640 б.

Корсун Андрей Юрьевич. (2010) *Формирование и реализация налогового потенциала территории. Специальность 08.00.10 - Финансы, денежное обращение и кредит. Автореферат диссертации на соискание ученой степени кандидата экономических наук. Ставрополь, с.26.*

Кортъева Татьяна Юрьевна. (2015) *Налоговый потенциал хозяйствующего субъекта и направления его реализации. 08.00.10 - Финансы, денежное обращение и*

кредит. Автореферат диссертации на соискание ученой степени кандидата экономических наук. Москва, с.27.

Лятина Елена Валериевна (2008). Формирование и оценка налогового потенциала в России. Специальность: 08.00.10 - "Финансы, денежное обращение и кредит". Автореферат диссертации на соискание ученой степени кандидата экономических наук. 2020 г. Тольятти, с.20.

Миронов Алексей Александрович. (2012) Методический инструментарий оценки налогового потенциала региона. 08.00.10 - Финансы, денежное обращение и кредит. Автореферат диссертации на соискание ученой степени кандидата экономических наук. Москва, с.24.

Попенков Денис Рудольфович. (2006) Налоговый потенциал субъекта федерации: оценка и прогнозирование по комплексным макроэкономическим показателям. Специальность 08.00.10 — «Финансы, денежное обращение и кредит». Автореферат диссертации на соискание учёной степени кандидата экономических наук. –Владивосток, с.28.

Толстая Ольга Валерьевна. (2010) Налоговый потенциал региона и его развитие. 08.00.10 - Финансы, денежное обращение и кредит. Автореферат диссертации на соискание ученой степени кандидата экономических наук. МОСКВА, с.29.

Туреев Азизбек Абатович. (2021) Қорақалпоғистон Республикасининг солиқ потенциалини оширишнинг асосий йўналишлари. 08.00.07-молия, пул муомаласи ва кредит ихтисослиги бўйича иқтисодиёт фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD) диссертацияси автореферати. Тошкент, 63.

Худойкулов Садирдин Каримович. (2019) Солиқ тушумларини прогноз қилиш методологиясини такомиллаштириш. 08.00.07 – молия, пул муомаласи ва кредит ихтисослиги бўйича иқтисодиёт фанлари доктори (DSc) диссертацияси автореферати. –Тошкент, 77 б.

Шернаев Акбар Оқмирзаевич. (2025) Акциядорлик жамиятларида солиқларни режалаштириш методологиясини такомиллаштириш. 08.00.07 – молия, пул муомаласи ва кредит ихтисослиги бўйича иқтисодиёт фанлари доктори (DSc) диссертацияси автореферати. Тошкент, -76 б.